

TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI

Tajiyeva Zuhra Kamalbayevna

TDIU akademik litsey o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lif jarayonida multimedia vositalarini qo'llashning afzalliklari haqida yoritilgan. Bundan tashqari multimedia vositalarining xususiyatlari, maqsadlari va uning samaraliligi tamoyillari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiyalar, multimedia resurslari, kompyuter vositalari, emotsiional-estetik ta'sirlanish, malaka talablari.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Таджиева Зухра Камалбаевна – преподаватель академического лицея ТДИУ, независимый исследователь

Абстракт. Использование мультимедийных средств в образовательном процессе в этой статье преимущества подчеркнуты. Кроме того, анализируются характеристики, цели и принципы эффективности мультимедийных средств.

Ключевые слова: современные технологии, мультимедийные ресурсы, компьютерные средства, эмоционально-эстетическое воздействие, квалификационные требования.

EFFECTIVENESS OF USING MULTIMEDIA IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Tajiyeva Zuhra Kamalbayevna

Teacher of TDIU academic lyceum, independent researcher

Abstract

Use multimedia tools in the educational process in this article advantages are highlighted. In addition, the characteristics, goals and principles of its effectiveness of multimedia tools are analyzed.

Keywords: modern technologies, multimedia resources, computer tools, emotional-aesthetic influence, qualification requirements.

Bugungi shiddat bilan o'sib borayotgan zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonini, albatta, multimedia vositalarisiz tasavvur qilish juda qiyin. Ayniqsa, bugungi kunda til ta'limida o'quvchilarning tinglab tushunish, so'zlash, o'qish va yozish kompetensiyalarini to'liq shakllantirishda o'qitishning zamonaviy metodlari va ularni yuzaga keltirishda yaqindan yordam beradigan multimedia vositalarining o'rni juda biqiyosdir. Ona tili mashg'ulotlarida to'g'ri tanlangan multimedia vositalari, hattoki, o'quvchilarda og'zaki va yozma savodxonlikning ham oshishiga amaliy yordam beradi, albatta. Xo'sh, nega ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish shunchalik muhim?

Bizga ma'lumki, ta'lim jarayonida multimedia vositalarini qo'llash pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan juda katta ahamiyatga ega. Bunday jarayonda ta'lim oluvchiga beriladigan ma'lumotlar oqimi nisbatan chuqurroq o'zlashtiriladi va shu bilan bir qatorda vaqtini tejash imkoniyatiga erishiladi, olingen ma'lumotlar kishi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi, o'quvchilarning passiv tinglovchi sifatida ishtirot etishi o'z-o'zidan qisqaradi, izlanuvchanlik va bilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan multimedia dasturlari tatbiq etiladi, ta'lim jarayoniga badiiylik kiritiladi. Boshqacha qilib aytganda, multimedia ta'limning emotsiyal-estetik ta'sirlanish, maqsadga intilish, tadqiqotchilik kabi motivlarni faolashtiradi. Ma'lumki, ta'lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rtdan bir qismini, ko'rgan materiallarining esa uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko'rib, ham eshitsa axborotning ellik foizini o'z xotirasida saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalaridan foydalanganda esa bu ko'rsatkich 75 % tashkil etadi.

Hozirgi amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari yordamida ta'lim sohasida o'quvchilarni o'qitish ikki baravar samarali natija bermoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, eshitgan ma'lumotlarning to'rtdan bir qismi xotirada qoladigan bo'lsa, o'quvchilarga berilayotgan ma'lumotlarni video orqali amalga oshirsak, axborotni xotirada saqlanib qolishi va tasavvur qilish imkoniyati 35-70 % gacha oshadi. Shuningdek, mazkur o'quv dasturlar audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashtirilgan holatda o'quvchilarga berilsa, ma'lumotlarni xotirada saqlab qolish 70-95 % ga oshishi kuzatilar ekan. Albatta, bu jarayon ta'limda oldimizga qo'ygan maqsadni amalga oshirishdagi eng samarali natija hisoblanadi.

Shu boisdan o'quvchilar ongida katta hajmdagi axborotni qabul qilish, tushunish hamda voqelikka nisbatan faol va mas'uliyatli munosabatni tarbiyalashning psixofiziologik va estetik xususiyatlarini hisobga oluvchi multimedia nazariyasini xususan multimedia pedagogikasini yaratishga intilish bugungi ta'lim jarayonimizda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Multimedia – bu bir necha ma'lumot taqdim etish vositalarining bir tizimga birlashishi.

Odatda multimedia deganda matn, ovoz, grafika, multipikatsiya, videotasvir va fazoviy modellashtirish kabi ma'lumot taqdim etish vositalarining kompyuter tizimidagi birlashishi tushuniladi. Multimedia hozirda juda tez rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyalardan bo'lib, u quyidagi xususiyatlarga ega:

- an'naviy axborot turlarini: matn, jadval, turli xil bezaklar hamda orginal axborot turlarini: nutq, musiqa, telekadrlar, videofilmlardan parchalar, lavhalar, animatsiya ko'rinishidagi axborotlarni o'z ichiga oladi.

- "inson-kompyuter-inson" interaktiv muloqotining yangi darajasining ta'minlanishi, muloqot jarayonida foydalanishda ancha keng va har tomonlama axborotlarni olishga ega bo'lish kabi bir qancha xususiyatlarga ega.

Yuqorida ham ta'kidlaganimizdek, ta'lim jarayonida multimedia vositalari yordamida o'quvchilarga bilim berish afzalliklari bir qancha, Bular sirasiga:

- ta'lim jarayonida berilayotgan ma'lumotlarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;

- ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqining yanada oshishi;

- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqt ni tejash imkoniyatiga erishilishi;

- eng asosiysi esa, olingan bilimlarning uzoq vaqt xotirada saqlanishi natijasida uni amaliyotda qo'llay olish malakasining rivojlanishidir.

Ta'lim jarayonida multimedia resurslaridan foydalanishning quyidagicha bir qancha usullari mavjud:

1. Multimedia darsligi.

2. Bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar to'plami keltirilgan metodik tavsiyalar.

- 3.O'rganilayotgan mavzular bo'yicha nazariy bilimlarning o'quvchilar tomonidan qanday darajada o'zlashtirilayotganini tekshirishga mo'ljallangan test dasturi.

4. Elektron virtual kutubxona;

5. Har bir ta'lim oluvchi uchun amaliy topshiriqlarni tayyorlash va bosib chiqarish dasturi;

6. Distant uslubida o'qitish, ya'ni o'qituvchi va o'quvchilar ma'lum masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimi.

7. Internet tarmog'iga ulangan multimedia kompyuterlari.

8. Printer(topshiriqlarini tayyorlash va test natijalarini chiqarish uchun).

9. Kompyuter ulangan proyektor yoki taqdim etish texnologiyasi va boshqalar.

Ta'kidlash mumkinki, multimedia resurslari ta'lim jarayoniga juda ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, lekin ushbu resurslarni yaratishga e'tibor bilan yondashish zarur. Ta'lim jarayonida multimedia qanday ishlaydi? Samarali ishlab chiqilgan ta'lim muhiti (shu jumladan, multimediali ta'lim muhiti) quyidagi 4 ta elementni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Axborotlarni aks ettirish;

2. Ishni nimadan boshlash va qanday davom ettirish bo'yicha qo'llanma;

- 3.Tushunish va xotirada saqlab qolish uchun mashqlar;

- 4.O'tilganlarni takrorlash yoki keyingi bosqichga o'tish zarurligini aniqlash uchun o'zini baholash.

Ta'lim jarayonini multimedia vositalari orqali o'qitish o'quv dasturining mazmuniy komponentlarini keng ko'lamba tizimga keltirishga ko'maklashadi, ta'lim oluvchilarga ta'limning to'liq yoki qisqartirilgan variantlarini erkin tanlash va o'tish imkonini beradi va shu bilan bir qatorda DTSning mazmuni bo'lgan o'quvchilardagi nutqiy kompetensiyalarning ham shakllanishida samarali natija beradi. Ta'lim vositalarining yangi shakli nafaqat muloqot, axborotlarni uzatish uchun yangi imkoniyatlarning vujudga kelishiga, balki an'anaviy ta'lim va ma'lum ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda zamonaviy madaniyatda o'zgacha o'rinni olgan yangi muammolarning, yechimlarning, yangi kesishish nuqtalarining vujudga kelishi uchun ham imkoniyatlar yaratadi.

Shu bilan bir qatorda multimedia vositalaridan to'g'ri va samarali foydalanish ta'lim jarayonini faollashtirish; o'quv faoliyatining samaradorligini oshirish; ta'lim oluvchilarning mustaqil ravishda ishlash madaniyatini rivojlantirish; mustaqil ta'lim doirasini kengaytirish, xullas, yetuk mutaxassislarni yetishtirish jarayonida kutilgan natijalarni beradi. Shu sababdan bugungi kunda deyarli barcha fanlardan, jumladan, ona tilini o'qitishda ham mukammal multimedia darsliklari yaratish ta'lim samaradorligini yanada oshirish uchun kutilgan natijalarni berishini unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gulyamov S.S., Ayupov R.X. Milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanishning strategik ahamiyati. Toshkent, UzMAA Axborotnomasi 2019-yil
2. www.infocom.uz
3. Mamarajabov M.E., Tursunov S.Q. Kompyuter grafikasi va web-di/.ayn. T. Cho'lpon.
4. www.tuit.uz (Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rasmiy sayti);
5. T.Rixsibovev. X.Rixsiboyeva, S.Tursunov. Kompyuter grafikasi. Darslik. Toshkent: "Tafakkur qanoti", 2018-yil.